



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
SUV XO‘JALIGI OBYEKTлари XAVFSIZLIGINI VA SUVDAN  
FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI  
B U Y R U Q**

2024 -yil “1”aprel

Toshkent sh.

19-sonli

**Inspeksiyada davlat xaridlarini  
tashkil etish va o‘tkazishni  
tartibga solish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasiga Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, kelgusida Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan Davlat xaridlari talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N :**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni *rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.*

2. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasida Davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat xaridlarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqib amalga oshirsinlar.

4. Mazkur Xarid komissiyasiga Inspeksiya tomonidan amalga oshiriladigan Davlat xaridlari bo‘yicha quyidagi vazifalar yuklatilsin:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta‘minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o‘tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

5. Belgilansinki, xarid komissiyasi belgilangan tartibda xarid qilish tartib taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun javobgar hisoblanadi.

6. Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha bosh mutaxassis H.Ro'zimurodovga:

Ishlab chiqarish zaruriyatiga ko'ra hamda bo'limlar tomonidan yozilgan talabnomalar asosida Inspeksiya markaziy apparatini saqlash bilan bog'liq tadbirlar va kommunal xizmatlar uchun zarur bo'ladigan tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni xaridini amalga oshirishini;

xarid komissiyasining xulosasiga muvofiq yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarni belgilangan tartibda ijro qilinishini ta'minlasin.

7. Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'yicha bosh mutaxassis (Ubaydullayev) ta'minotchi korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarni maxsus axborot portaliga joylashtirib borilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilish boshliq o'rinbosari Z. Irisboyev zimmasiga yuklatilsin.

**Boshliq**



**R.Raximov**

"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasining  
2024-yil 1-apreldagi 19-sonli  
buyrug'iga 1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari  
xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining  
**Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha**  
**KOMISSIYA TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>F.I.Sh</b>	<b>Lavozimi</b>
1	Z. Irisboyev	Boshliq o'rinbosari- <b>Komissiya raisi</b>
<i>Ishchi gurux a'zolari</i>		
2	N.Tashbayev	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodim
3	H. Ro'zimurodov	Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha bosh mutaxassis
4	Sh.Ismailov	O'ta muhim suv xo'jaligi obyektlarining xavfsizligi va ishonchli ishlashini nazorat qilish bo'limi
6	A.Tashmatov	Suvdan foydalanish va suv iste'molini hamda irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlaridan foydalanishni nazorat qilish
7	A. Qobulov	Xo'jalik mudiri

*Izoh. Komissiya tarkibi a'zosi boshqa ishga o'tgan taqdirda, ushbu lavozimga yangi tayinlangan shaxs kiritiladi.*